



Qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyati, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, jinoyatni oldini olishning huquqiy mexanizmlari

Akbarxon A'zamov

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurash kafedrasida yordamchi o'qituvchisi

izzatullayevich2000@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyatining huquqiy tabiati, uning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari hamda oldini olish choralari tahlil qilinadi. Mazkur jinoyat iqtisodiyot barqarorligiga putur yetkazib, moliyaviy tizimning ishonchliligini pasaytiradi, ish o'rinlarining qisqarishiga va investitsion muhitning yomonlashishiga olib keladi. Shuningdek, jamiyatda huquqiy adolatsizlik hissini kuchaytirib, korrupsiya va firibgarlik xavfini oshiradi. Maqolada ushbu jinoyatni oldini olish uchun xalqaro tajriba va milliy qonunchilik doirasida samarali huquqiy mexanizmlar ko'rib chiqilib, amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Qasddan to'lovga qobiliyatsizlik, sun'iy bankrotlik, iqtisodiy jinoyatlar, moliyaviy barqarorlik, huquqiy mexanizmlar, investitsion muhit, ijtimoiy oqibatlar, korporativ firibgarlik, soliq tushumlari, huquqni muhofaza qilish organlari, bankrotlik qonunchiligi, korrupsiyaga qarshi kurash, kredit tizimi xavfsizligi, ishsizlik muammosi, davlat iqtisodiy siyosati.

XX Asrdan boshlangan huquq va moliya bo'yicha o'sib borayotgan adabiyotlar moliyaviy tizimlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishda va firmaning korporativ boshqaruvi va moliyalashtirish shakllariga ta'sir qilishda kapital va kreditorlar huquqlarining



mustahkamligi muhimligiga e'tiborni qaratib kelmoqda. Ushbu huquqiy adabiyotlarda investorlarning ko'proq himoyalaniishi, kapital bozorlarining rivojlanishini rag'batlantirishi va kreditorlarni yaxshiroq himoya qiladigan mamlakatlarda rivojlangan kredit bozorlari mavjudligi aniqlangan. Kreditorlar huquqlari mustahkamligining muhim jihatlari mamlakatning to'lovga layoqatsizlik rejimi va uni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi. So'nggi moliyaviy inqirozlar korporativ sektorning moliyaviy muammolarini oldini olish va hal qilish uchun to'lovga layoqatsiz tizimlarning yaxshi ishlashi muhimligini yana bir bor ta'kidladi. Umuman olganda, resurslarni taqsimlash, samaradorlik va barqarorlik, shuningdek, tenglik va adolat nuqtai nazaridan to'lovga layoqatsiz tizimlarni loyihalashga global miqyosda qiziqish ortib bormoqda

Hozirgi rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar o'z moliyaviy barqarorligini saqlab qolishi va to'lov qobiliyatini yo'qotmasligi muhim ahamiyatga ega. Biroq, ayrim hollarda tadbirkorlik subyektlari yoki mansabdor shaxslari sun'iy ravishda o'z korxonasining to'lovga qobiliyatsizligini e'lon qilib, kreditorlarning manfaatlarini poymol qilmoqda. Bunday noqonuniy harakatlar nafaqat moliyaviy tizimga, balki umuman jamiyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyati (bankrotlikni sun'iy tashkil etish) biznes va moliyaviy muhitning barqarorligiga jiddiy xavf soladi. Bu jarayon natijasida nafaqat kredit tashkilotlari va hamkor kompaniyalar zarar ko'radi, balki iqtisodiyotning umumiy o'sish sur'atlari pasayadi, davlat byudjetiga tushadigan soliqlar kamayadi va ishsizlik darajasi ortadi.

Maqolada mazkur jinoyatning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari, uning huquqiy jihatlari hamda oldini olishning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, huquqni muhofaza qilish organlari va moliyaviy institutlarning monitoring tizimini takomillashtirish, qonunchilikni kuchaytirish va xalqaro tajribadan foydalanish orqali ushbu jinoyatning oldini olish choralari muhokama etiladi.



Qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyati (sun'iy bankrotlik) asosan shaxsiy yoki korporativ manfaatlarni ko'zlab sodir etiladi. Bunday noqonuniy harakatlar yana boshqa turli maqsadlarni ko'zlab sodir etilishi mumkin.

Birinchidan, moliyaviy majburiyatlardan qochish maqsadida bo'lishi mumkin, korxonalar yoki tadbirkorlar banklar, investorlar va boshqa kreditorlarga to'lov qilmaslik uchun sun'iy ravishda bankrotlik holatini yaratadi.

Ikkinchidan, soliq to'lovlaridan qochish maqsadida. Ba'zi kompaniyalar katta soliq majburiyatlaridan qutulish maqsadida moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirib, to'lovga qobiliyatsizlikni namoyon qiladi.

Uchinchidan, mol-mulkni yashirish va noqonuniy o'zlashtirish maqsadida masalan, korxona rasmiy bankrotlik e'lon qilmasdan oldin o'zining asosiy aktivlarini boshqa shaxslar yoki tashkilotlarga sotib yuborishi va keyinchalik bu aktivlarni shaxsiy maqsadlarda ishlatishi mumkin. Shuningdek, kreditorga zarar yetkazishni qasddan ko'zlashi ham mumkin. Ayrim tadbirkorlar yoki rahbarlar kreditorlarning moliyaviy talablarini bajarmaslik uchun korxona hisob-raqamlarini bo'shatib, aktivlarni yashiradi.

To'rtinchidan, raqobatchilarni aldash yoki bozorga ta'sir o'tkazish maqsadida. sun'iy to'lovga qobiliyatsizlik orqali kompaniyani qayta tashkil etish holatlari ham amaliyotda uchrab turadi, ba'zan kompaniyalar eski qarzlardan qutulish uchun sun'iy bankrotlik e'lon qilib, boshqa nom bilan faoliyatini davom ettiradi. Bundan tashqari ayrim yirik korxonalar o'z raqiblarini bozorga kirishdan to'xtatish yoki ularning ishonchini pasaytirish uchun to'lovga qobiliyatsizlikni mohirona rejalashtirishi mumkin.

Beshinchidan, boshqa jinoyatini yashirish ham maqsad bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda kompaniya rahbarlari firibgarlik yoki boshqa jinoiy yo'l bilan o'zlashtirilgan mablag'larni yashirish maqsadida kompaniyani qasddan bankrot holatiga keltiradi. Shuningdek pul yuvish operatsiyalarini amalga oshirish uchun ham sodir etilishi mumkin. Ko'pincha yirik moliyaviy jinoyatlarda korxonaning to'lovga qobiliyatsizligi oldindan



rejalashtirilgan sxema bo'lishi mumkin. Qasddan to'lovga qobiliyatsizlik jinoyati ko'pincha iqtisodiy manfaatlarni qo'lga kiritish, qarz va majburiyatlardan qochish yoki moliyaviy firibgarlikni yashirish maqsadida sodir etiladi. Ushbu jinoyatni oldini olish uchun qonunchilikni takomillashtirish, moliyaviy monitoring tizimini kuchaytirish va huquqni muhofaza qilish organlari nazoratini oshirish zarur.

Qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish (bankrotlikni sun'iy keltirib chiqarish) jinoyati jamiyat va iqtisodiyot uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bu jinoyat nafaqat alohida korxonalar, balki umuman biznes muhiti, moliyaviy tizim va ijtimoiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Quyida ushbu jinoyatning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini batafsil tahlil qilamiz. Qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyati moliyaviy tizim uchun xavfli bo'lib, ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan banklar va kredit tizimiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Korxonalar sun'iy ravishda to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilinsa, banklar qarzlarini qaytarib ololmaydi. Kredit tashkilotlari bankrot bo'lish xavfi ostida qoladi. Bank tizimining ishonchliligi pasayadi va kredit foiz stavkalari ortishi mumkin. Bundan tashqari yuqorida ta'kidlaganimizdek investitsion muhitga ham ta'sir o'tkazadi. Eng avvalo qasddan to'lovga qobiliyatsizlik xalqaro va mahalliy investorlarning ishonchini yo'qotadi, moliyaviy xavflarning oshishi natijasida yangi investitsiyalar kamayadi, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun kapital jalb qilish imkoniyatlari qisqaradi. Shunindek soliq tizimiga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Davlat byudjetiga tushadigan soliq tushumlari kamayadi, chunki noqonuniy bankrotlik natijasida korxonalar soliq to'lamaydi. Byudjet kamomadi oshishi natijasida davlat xarajatlarini qoplash uchun yangi soliqlar yoki kredit mablag'lari talab qilinishi mumkin. Bundan tashqari qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyati ijtimoiy va iqtisodiy inqiroz keltirish xavfi ham yuqori. Xususan, bankrotlik natijasida zavod, fabrika yoki boshqa ishlab chiqarish korxonalari yopilishi mumkin, natijada minglab ishchilar ishsiz qolishi natijasida ijtimoiy keskinlik oshadi. Mehnat bozorida raqobat oshib, ish haqlari pasayishi mumkin. Qasddan bankrotlik



ortidan iqtisodiy jinoyatlar, shu jumladan moliyaviy firibgarliklar ko'payadi. Davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy yordamlar noto'g'ri maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Fuqarolar o'rtasida huquqiy adolatsizlik hissi kuchayishi natijasida norozilik kayfiyati ortadi. Korporativ sektor ishonchini yo'qotadi va kompaniyalar o'zaro hamkorlik qilishdan tortinishi mumkin, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida uzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur jinoyat iqtisodiyotni beqarorlashtiruvchi, biznes muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib, uni oldini olish uchun huquqiy, institutsional va korporativ darajadagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Xususan eng avvalo huquqiy mexanizmlarni kuchaytirish orqali ushbu jinoyatni qaysidir ma'noda kamaytirishga erishish mumkin. Masalan, qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish bilan bog'liq moddalarni aniqlik bilan belgilash, jazoni qat'iylashtirish choralari ko'rish mumkin. Shuningdek bankrotlik jarayonlarining shaffofligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish ham ijobiy samar berishi mumkin. Bundan tashqari davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rolini kuchaytirish ham foyda berish ehtimoli yuqori, yana ham aniq aytadigan bo'lsak, banklar, soliq organlari va boshqa davlat idoralari orqali korxonalarining moliyaviy ahvolini doimiy nazorat qilish, korporativ moliyaviy jinoyatlarni erta aniqlash va oldini olish uchun huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini takomillashtirish, davlat tomonidan mustaqil audit mexanizmlarini kuchaytirish, buxgalteriya hisobi shaffofligini oshirish usullari tajribali davlatlar misolida foydali bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Faqatgina tashqi ta'sirlardan tashqari korxona boshqaruvida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash choralari ko'rish ham foydali bo'lishi tabiiy. Korxonalar o'z ichki audit xizmatlarini kuchaytirishlari kerak, har bir yirik kompaniya moliyaviy xavflarni boshqarish strategiyasiga ega bo'lishi lozim, korxona rahbariyati va moliyaviy menejerlarning noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.



Yuqorida keltirilgan fikrlarimizni xulosa qiladigan bo'lsak, qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyati iqtisodiyotning barqarorligiga jiddiy xavf soluvchi holatlardan biri bo'lib, uning oqibatlari nafaqat korxonalar va kreditorlarga, balki butun jamiyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jinoyat natijasida bank tizimiga ishonch pasayadi, soliq tushumlari kamayadi, investitsion muhit yomonlashadi va ishsizlik darajasi oshadi. Bundan tashqari, ijtimoiy beqarorlik, korrupsiya xavfi va firibgarlik kabi salbiy holatlar ham ko'payadi.

Mazkur jinoyatni oldini olish uchun huquqiy mexanizmlar takomillashtirilishi, iqtisodiy monitoring tizimlari kuchaytirilishi va huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan nazorat mexanizmlari mustahkamlanishi lozim. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv shaffofligini oshirish, moliyaviy hisobotlarni qat'iy nazorat qilish hamda xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Qasddan to'lovga qobiliyatsizlik jinoyatini kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlat idoralari, biznes subyektlari va huquqni muhofaza qilish organlari hamkorlikda ishlashi zarur. Faqat shundagina moliyaviy intizom mustahkamlanib, iqtisodiy jinoyatlarga qarshi samarali kurash olib borilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – Qasddan to'lovga qobiliyatsizlikka olib kelish jinoyati bo'yicha normativ-huquqiy asoslar.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi – Bankrotlik va to'lovga qobiliyatsizlikka oid huquqiy normalar.
3. O'zbekiston Respublikasining “Bankrotlik to'g'risida”gi Qonuni – Bankrotlik jarayonlarini tartibga soluvchi qonuniy asoslar.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi – Soliq majburiyatlari va to'lovga qobiliyatsizlikning soliq tizimiga ta'siri.



5. Mirziyoyeva, N. (2022). “O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish tizimi” – Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurash bo‘yicha ilmiy tadqiqot.
6. Karimov, A. (2021). “Bankrotlik va moliyaviy firibgarlik: nazariya va amaliyot” – Korporativ boshqaruv va moliyaviy huquqbuzarliklar bo‘yicha tahliliy tadqiqot.
7. Davlat statistika qo‘mitasi (2023). “O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha yillik hisobot” – Milliy iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari va moliyaviy barqarorlik masalalari.
8. Transparency International (2023). “Global Corruption Report” – Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha xalqaro tahlil.
9. OECD (2022). “Corporate Governance and Business Ethics” – Korporativ boshqaruv va biznes etikasi bo‘yicha xalqaro me‘yorlar.
10. World Bank (2023). “Bankruptcy and Insolvency Legal Frameworks” – To‘lovga qobiliyatsizlik va bankrotlik bo‘yicha xalqaro tajriba.
11. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – Normativ-huquqiy hujjatlar va qonunlar matni. <https://www.lex.uz>
12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi – Soliq qonunchiligi va moliyaviy masalalar. <https://www.soliq.uz>
13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – Bank tizimi va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha ma‘lumotlar. <https://www.cbu.uz>
14. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi – Iqtisodiy ko‘rsatkichlar va statistik ma‘lumotlar. <https://www.stat.uz>
15. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UNODC) – Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurash. <https://www.unodc.org>
16. Transparency International – Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha xalqaro hisobotlar. <https://www.transparency.org>
17. Jahon Banki (World Bank) – Bankrotlik va to‘lovga qobiliyatsizlik bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar. <https://www.worldbank.org>



18. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (OECD) – Korporativ boshqaruv va biznes etikasi. <https://www.oecd.org>
19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining rasmiy sayti – Sud amaliyoti va iqtisodiy jinoyatlar. <https://www.supcourt.uz>
20. Bankrotlik to‘g‘risidagi xalqaro tahliliy saytlar (Jahon tajribasi uchun) <https://www.insol.org>